

FINAL 2003 DASTURIDA NOTA MATNLARINI TAHRIRLASH MUSIQA
TA'LIMI O'QITUVCHISINING FAOLYATIDA ZARURIY MALAKA SIFATIDA

РЕДАКТИРОВАНИЯ НОТНЫХ ТЕКСТОВ В ПРОГРАММЕ FINALE
2003 КАК НЕОБХОДИМЫЙ НАВЫК ДЛЯ ПЕДАГОГОВ
МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

EDITING NOTE TEXTS IN THE FINALE 2003 PROGRAM AS A
NECESSARY SKILL FOR MUSIC EDUCATION TEACHERS

Alijon Ergashev Abdullayevich

*Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Vokal san'ati va cholg'u ijrochiligi kafedrasida o'qituvchisi*

Алижон Эргашев Абдуллаевич

*Преподаватель кафедры вокального и инструментального
исполнительства факультета искусствоведения Ферганского
государственного университета*

Alijon Ergashev Abdullayevich

*Lecturer at the Department of Vocal and Instrumental Performance,
Faculty of Arts, Fergana State University*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi faoliyatida muhim hisoblangan Finale 2003 nota muharriri vositasida nota matnlarini yozish malakalarini shakllantirish musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv, zaruriy vosita sifatida ko'rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье обсуждается роль и важность формирования у будущего учителя музыки навыков набора нот посредством нотного редактора Finale 2003 как необходимое средство, как современный подход повышения эффективности музыкального образования.*

Abstract: *This article discusses the role and importance of developing the skills of typing notes in a future music teacher using the music editor Finale 2003 as a necessary tool, as a modern approach to increasing the effectiveness of music education.*

Kalit so'zlar: *texnika va san'at, Finale 2003 dasturi, nota matni, ko'razmalilik, nota savodi, nota muharriri.*

Ключевые слова: *техника и искусство, программа Finale 2003, ноты, универсальность, нотная грамотность, нотный редактор.*

Key words: *technology and art, Finale 2003 program, sheet music, versatility, sheet music literacy, sheet music editor.*

KIRISH

XX asrda fan va texnikaning rivojlanishi natijasida inson mehnatini yengillashti-ruvchi, mehnat unumdorligini oshiruvchi va juda ko'p qulayliklar beruvchi texnik vosi-talar ishlab chiqarildi. Ular qatoriga telefondan boshlab televizorgacha, kalkulyatoridan boshlab zamonaviy kompyuterlargacha, avtomobildan boshlab samolyotgacha bo'lgan vositalarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, bu vositalarni inson faoliyatining turli sohalarida unumli foydalanish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar yuzaga keldi.

“Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fanining maqsadi – o'quvchilarga axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish jarayonini puxta va ongli ravishda o'zlashtirish uchun bilim asoslarini berishni ta'minlashdan, ularga o'quv va keyingi ish faoliyatlarida kompyuterlardan oqilona foydalanishga oid ko'nikma va malakalarni berishdan, shular asosida yangi axborot texnologiyalarining mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi haqida tasavvur hosil qilishdan iborat.

“Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fani quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarning axborotlarni qayta ishlash haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- o'quvchilarni zamonaviy kompyuter texnikasining tuzilishi, tarkibi, ishlash mexanizmi va imkoniyatlari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarda kompyuterlar bilan amaliy ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarga axborot texnologiyalari haqida bilimlar berish hamda ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarga kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va uning asosiy bosqichlari haqida bilim berish;
- o'quvchilarda asosiy algoritmik tizimlarni bilish, algoritmlash va dasturlash asoslari bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'quvchilarga kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning vazifalari haqida bilim berish hamda qo'llash ko'nimasini shakllantirish;
- o'quvchilarda kurs davomida egallangan bilim va ko'nikmalardan tipik o'quv masalalarini yechishda foydalanish malakasini hosil qilish;
- o'quvchilarda yangi axborot texnologiyalarining jamiyatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim ahamiyati va inson faoliyatining turli jabhalariga ijobiy ta'siri haqida tasavvur hosil qilish.

Respublikamizda musiqa pedagogikasi fanining rivojlantirish Prezidentimiz tashabbuslari bilan chiqarilayotgan farmon, qonunlarda o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda soha buyurtmalari bo'yicha ishlayotgan OTM lar faoliyati zamon talablariga mos yuqori malakali, kadrlar tayorlash borasidagi vazifalar bilan belgilanadi.

Bu yo'nalishda bo'lajak o'qituvchi kadrlarning va ayniqsa o'quvchi yoshlarning yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo'lishlari alohida ahamiyatga ega. Yoshlarda shunday ijobiy sifatlarni tarbiyalashda musiqa san'ati eng samarali vositalardan biri bo'lmog'i lozim[1,2].

Musiqiy ta'limda ilg'or mamlakatlar andozasiga mos tarzda o'quvchilarning egallashlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalari darajasini belgilab beradi.

Darsda ilg'or texnologiyalarni qo'llash, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, zamonaviy uslub va metodlardan foydalanish ta'lim sifatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Barcha fanlar qatori musiqa fani bo'yicha ta'lim va tarbiya borasida yangi zamonaviy talablarga mos va hos bo'lgan barcha ilg'or tajriba va yangiliklardan oqilona foydalanish mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni mazmun va sifatini ko'tarishga xizmat qiladi[1,13].

Umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limda o'quvchi va talabalarda umumiy kompyuter savodxonligiga oid bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda kompyuterda ovoz yozish, kompyuterda musiqa notalarini yozish, kompyuterda aranjirovka qilish, ovoz ustida ishlash dasturlari yaratilgan. Mazkur sohada MDH davlatlari olimlaridan Sergey Lebedev, Pyotr Trubinov, V.A.Sharipov, Chernishev A.V. kabilar sarmahsul izlanishlar olib bormoqdalar.

Mamlakatimizda bu soha doirasida N.Q.Umurovning "SIBELIUS 4, SIBELIUS 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari", Sh.A.Gagurovaning "ОСНОВЫ РАБОТЫ С НОТНЫМ РЕДАКТОРОМ ENCORE 4.0", R.Turgunbayevning "MUSESCORE muharririda ishlash uslubiyoti" kabi o'quv qo'llanmalari yaratigan. Lekin Finale 2003 nota muharriida ishlash haqida ma'lumot yoritilmagan. Finale nota muharrirlarining o'ziga xos qulayliklari va imkoniyatlari bor. Finale dasturlarining hammasida notalarni yozish imkoniyati bir xil. Faqat interfeysi va qo'shimchalari bilan farq qiladi.

Bilamizki bo'lajak musiqa ta'limi talabalarining o'quv reja asosida haftasida atigi 2 soat dars mashg'ulotlari mo'ljallanganligini inobatga olib, talabalarni o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish uchun imkon qadar sodd, oddiy, lekin shunga qaramay mukammal dasturda ishlashni tavsiya etishimiz

maqsadga muvofiq. Kompyuterda notalarsiz musiqa yozish, kompyuterda musiqa notalarini yozish, kompyuterda aranjirovka qilish, ovoz ustida ishlash, yaratilgan musiqa asarlari va ularning notalarini chop etish dasturlarini o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etishni rivojlantirish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining musiqa rahbarlari asosan aranjirovkachilar yaratgan musiqa namunalaridan foydalanishmoqda. Umumiy o'rta ta'limda "Musiqa madaniyati" o'qituvchilari ham aranjirovkachilar xizmatidan foydalanishadi. Musiqa rahbarlari va musiqa o'qituvchilarining umumiy kompyuter savodxonligi va maxsus dasturlarda ishlash malakalari talab darajasida emas.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Kompyuterda musiqa yozish uchun yaratilgan dasturlar ko'p. Musiqa notalarini yozish, musiqani aranjirovka qilish, transpozitsiya qilish va juda ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan dasturlar bor.

Bulardan "Finale" va "Sibelius" nota muharrirlari boshqa nota muharrirlariga nisbatan yaxshi ommalashgan. Bu dasturlar juda yuqori malakali musiqa mutaxassislari va informatika, axborotlashtirish mutaxassislarining hamkorlikdagi sermashaqqat mehnati natijasidir. Ularning har birini o'zlashtirish uchun vaqt, talab darajasidagi musiqiy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talab etiladi.

Kompyuterda musiqa yozish dasturlaridan musiqa ta'limi tizimining hamma bosqichlarida (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, pedagogika kollejlarda, oliy ta'lim bosqichida, oliy ta'limdan keyingi ta'limda, malaka oshirish institutlarida) foydalanish mumkin.

Oliy ta'limning musiqa ta'limi yo'nalishi, vokal san'ati va cholg'u ijrochiligi yo'nalishlarida (jamoat qo'shiqchiligi va amaliyoti, xor dirijyorligi, xonandalik, maxsus cholg'u, qo'shimcha cholg'u, bolalar asarlari ustida ishlash amaliyoti, musiqa adabiyoti, maktabda musiqa o'qitish uslubiyoti, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi uslubiyoti, solfedjio, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya) o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi deb o'ylayman. Bu jarayonda "ko'rayapman, eshitayapman, ijro etyapman" tamoyili to'la to'kis amalga oshirilgan bo'ladi. Bu jarayonda o'rganayotgan talabaning musiqiy eshitish, ijrochilik qobiliyatlari har tomonlama rivojlanadi. Bunda talabaning ko'rgazmali, obrazli musiqiy fikrlash, eshitib tahlil qilish, darsdan so'ng kompyuter jo'rnovozligi bilan ansambl bo'lib ijro etish qobiliyatlari, xotirasi, ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR:

O'qituvchilar, o'quvchilar kompyuterda musiqa yozish dasturlaridan dars jarayonida foydalanibgina qolmay, darsdan keyingi o'z ustida ishlash jarayonida, ijrochilik mahoralarini oshirishda, ijod namunalarini yaratishda va ulardan amaliyotda foydalanishlari mumkin. O'zlari yaratgan asarlarni yozib, eshitib ko'rib, asarlarning ifodaliligi, jozibaliligi ustida ijodiy izlanishlar olib borishdek imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Yaratilgan hamma dasturlarni o'zlashtirishning keragi va iloji yo'q, chunki ularni o'zlashtirish ko'p vaqtni talab etadi. Amaliyotda qaysi dastur qulay bo'lsa o'sha dasturdan foydalangan ma'qul deb o'ylayman.

“Finale 2003” dasturidan imkoniyatlaridan musiqa ta'limi yo'linalishi bo'limida o'qitiladigan quyidagi fanlarni o'qitishda samarali foydalanish, o'quvchilarning bilimi saviyasini, samaradorligini oshirish mumkin:

- jamoa qo'shiqchiligi fanida
- xonandalik fanida
- xor dirijyorligi fanida
- bolalar asaralari ustida ishlash amaliyoti fanida
- maxsus cholg'u va qo'shicha cholg'u fanlarida
- ritmika fani darslarida.

Bundan tashqari dastur imkoniyatlaridan umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin.

Mazkur fikrimiz namunasi sifatida A.Ergashev, U.Rahmonovlarning “Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa”, Laylo Tursunovanning “Bog'cha gulim”, “Yurtimda baryam bo'lsin”, “Vatan mening quvonchim”, “Kuyga to'lsin bu olam” nota to'plamlari, Ismoil Rustamovning “Doira usullarini ijro etish uslublari” o'quv qo'llanmasi, Madina Nasritdinovanning “O'zbek xalq musiqa ijodi” darsligiga kiritilgan nota matnlari Finale 2003 dasturida amalga oshirilgan.

Albatta bu imkoniyatlardan foydalanish o'qituvchining tayyorgarligi va uslubiy mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musiqaning dolzarb nazariy muammolari. X.N.Nurmatov. Toshkent-2002. 2-13bet.

2. Алижон Эргашев. “Finale 2003 дастурида музика ноталарини ёзиш”. Услубий қўлланма. Фарғона давлат университети davlat universiteti. Элекерон кутухонаси kutubxonasi. 2021

<https://drive.google.com/file/d/1ZxJItJFCQABbR7kcB7jbQKF5T9i8v71M/view?pli=1>

3. Ergashev, A. (2022). MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 545-554.

4. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. *Science and Innovation*, 1(7), 262-265.

5. Ismoil Rustamov. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 74-77. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejhss/article/view/583>

6. Рустамов, И. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ПРИЕМОВ В ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ НА ИНСТРУМЕНТЕ ДОЙРА. *ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/3), 257-263. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N36>

7. Rustamov, I. (2022). DOIRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, 1(B6), 456-460.

8. Насритдинова, М. Н. (2023). УСТОЗ МУХТОР АШРАФИЙ МАҲОРАТЛИ ПЕДАГОГ СИЙМОСИДА ШОГИРДЛАРИ ХОТИРАСИДА МАНГУ БАРҲАЁТ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(2), 303-305.

9. Nasritdinova, M. (2023). METHODS OF DIRECTING FUTURE MUSIC TEACHERS TO THE PROFESSION THROUGH THE DEVELOPMENT OF THEIR ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE ON THE BASIS OF THE ARTPEDAGOGICAL APPROACH. *Science and innovation*, 2(B5), 325-329.

10. Nurullaevna, N. M., Rustamovna, M. N., & Bakhodirjon o'g'li, T. D. (2021). Methodological Support and Practical Status of Health Through Developing Children Through Music Education. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

11. Nurullayevna, N. M. (2022). THE ROLE OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN CREATING A NEW UZBEKISTAN ENLIGHTENED SOCIETY. *IMRAS*, 1(1), 238-241.